

YOSHLARGA YARATILAYOTGAN YANGI O‘ZBEKISTONDAGI YANGI IMKONIYATLAR

Karimova Odina Azimjon qizi

Namangan davlat Universiteti

Yuridik fakulteti talabasi

Karimovaodina06@icloud.com

Ilmiy rahbar: Po‘latov Otabek A‘zamjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarga berilayotgan hamda yaratilayotgan imkoniyatlar, ularning ta‘lim olishi, kasb-hunarga yo‘naltirish hamda bandligini ta‘minlash borasida tadbirkorlik faoliyatini yanada yuksaltirish bo‘yicha bir qancha chora-tadbirlar to‘g‘risida, shuningdek jamiyat hayotida faol ishtiroklarini ta‘minlash borasidagi olib borilayotgan ishlar va yoshlarni huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarning ahamiyati keng ko‘lamda yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, Yangi O‘zbekiston, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, inklyuziv ta‘lim, imtiyozlardan oqilona foydalanish, tadbirkorlik faoliyati, imtiyozli kreditlar, xotin-qizlar.

Abstract: This article extensively discusses the opportunities provided and created for young people in New Uzbekistan, a number of measures to improve their education, vocational guidance, and employment, as well as the work being done to ensure their active participation in public life, and the importance of reforms aimed at further improving the legal awareness and legal culture of young people and supporting their success.

Keywords: Youth, New Uzbekistan, legal awareness, legal culture, inclusive education, rational use of benefits, entrepreneurship, preferential loans, nobles.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются возможности, предоставляемые и создаваемые для молодежи в Новом Узбекистане, ряд мер по улучшению их образования, профессиональной ориентации и трудоустройства, а также работа, проводимая для обеспечения их активного участия в общественной жизни, и важность реформ, направленных на дальнейшее повышение правовой осведомленности и правовой культуры молодежи и поддержку их успеха.

Ключевые слова: Молодежь, Новый Узбекистан, правовая осведомленность, правовая культура, инклюзивное образование, рациональное использование благ, предпринимательство, льготные кредиты, знать.

Kirish

Bugungi kunda yoshlar har bir davlatning eng asosiy ijtimoiy qatlami hisoblanib, ularni kelgusida bilimli va yuksak salohiyatga ega bo‘lishlari hamda kelajakda yetuk mutaxassis

bo‘lishlari uchun keng ko‘lamda islohotlar olib borilmoqda. Shu sababli Yangi O‘zbekistonda yoshlarga har bir sohada ya‘ni ijtimoiy soha bo‘ladimi, iqtisodiy bo‘ladimi har biri uchun alohida imtiyozlar ajratilishi bularning barchasi yosh avlodning yuksalishi uchun yo‘l ochmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta‘lim tizimini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek o‘zib kelayotgan yosh avlod uchun ta‘lim sifatini yanada takomillashtirish bo‘yicha yo‘l xaritalar belgilandi. Xususan inkluziv ta‘lim va tarbiya ta‘minlanishi alohida norma sifatida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilganligi ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni jismoniy, aqliy, ruhiy nuqsonga ega bo‘lgan bolalar uchun ta‘lim tashkilotlarida inkluziv ta‘lim tashkil etilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib bundan asosiy maqsad shuki bunday nuqsonga ega bolalarni yakkalanib qolmasligi ular ham jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida shakllanishi, ularning keyinchalik o‘z o‘rnini topishi uchun muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, uzluksiz ta‘lim tizimini va uning turli xil shakllari xususan davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlarini yanada rivojlantirish uchun bir qancha normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Yuqoridagi normalar konsytitutsiyamizga kiritilishi bog‘chalar va maktablar, hamda oliy ta‘lim tashkilotlari sonining ko‘payishiga, ta‘lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. (Konstitutsiya 50-51) Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan davlat siyosati yoshlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yoshlarni har tomonlama rivojlanishini ta‘minlash maqsadida Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida qonun qabul qilingan.

Respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlar so‘nggi yillarda shiddat bilan rivojlanmoqda. Hududlarda nodavlat ta‘lim tashkilotlari tashkil etilishi, yoshlarni vaqtini mazmunli o‘tkazish hamda ularni bandligini ta‘minlash, hunarmandchilik va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Yoshlarni bilim olishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish hamda qabul kvotalarning oshirilishi, xotin-qizlarga davlat grandlari ajratish va oliy ta‘lim qamrovini kengaytirish maqsadida foizsiz ta‘lim kreditlari ajratish, kam ta‘minlangan oilalar farzandlariga davlat tomonidan kontrakt to‘lovlarini to‘lab berilishi, ularning qo‘shimcha bilim olishlari uchun repetitorlarga qatnashib xorijiy tillarni o‘rganishda beg‘araz yordam berish bularning barchasi yoshlarga berilayotgan keng imkoniyatlardir. Yoshlarning bandligini ta‘minlash va tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash sohasidagi qator islohotlar o‘z samarasini bermoqda. Yangi O‘zbekiston yoshlarini ish bilan ta‘minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilganini ko‘rish mumkin. Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar hamda subsidiyalar ajratish bo‘yicha ham qator normativ hujjatlar qabul qilinmoqda. Bu esa yoshlarni iqtisodiy jihatdan mustaqil o‘sishi uchun turtki bo‘ladi. Shuningdek yoshlarni yashash sharoitini yanada yaxshilash, yoshlarni salomatligini mustahkamlash uchun tibbiy xizmatlardan foydalanishini ta‘minlash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, boquvchisini yo‘qotgan va ota-ona qaramog‘idan mahrum

bo‘lgan bolalarni jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularning yana bir muhim jihati shundan iboratki, yangi O‘zbekiston yoshlarini ijtimoiy sohada qo‘llab quvvatlash, qiynab kelayotgan muammolarni aniqlash va oldini olishga qaratilgan tizim joriy qilindi. Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan Yoshlar Ishlari agentligi tashabbusi bilan “Yoshlar daftari” platformasi ishga tushirildi. Ushbu platforma yoshlarni ijtimoiy-qo‘llab quvvatlash muammolarini aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, ularni bilim va kasbga yo‘naltirish, kelajakda har bir o‘sib kelayotgan yoshlarga munosib shart-sharoitlar yaratish uchun xizmat qiladi. Yoshlar daftariga kirish uchun shaxs o‘zi istiqomat qilayotgan mahallalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar yetakchisiga muroajaat qilishi yoki bo‘lmasa masofadan turgan holda onlayn ariza topshirishlari mumkin.

Bugungi kunda yoshlarni huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga ham juda katta e‘tibor qaratilmoqda. Yoshlarni huquqiy bilim va ko‘nikmalarini yuksaltirishga yo‘naltirilgan onlayn huquq maktablari tashkil etilmoqda. Ushbu huquq maktab orqali bepul huquqiy kurslar joriy qilingan bo‘lib, bu platformada o‘qituvchilar alohida slaydlari bilan mavzuni to‘laqonlik ravishda tushintirib beradi. Onlayn kurslar fuqarolik, jinoiy hamda inson huquqlari, mehnat munosabatlari shu kabi muhim mavzularni qamrab olgan. Ushbu kurslar yoshlarning nafaqat nazariy hamda amaliy bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish, yoshlarni huquqbuzarlikka qarshi murosasiz munosabatini shakllantirish bo‘yicha ham profilaktik ishlar olib borilayotganini ko‘rish mumkin. Ta‘lim muassasalarida “Huquqiy bilimlar oyligi” tadbirlari o‘tkazilishi ham yoshlarni yuridik bilimga qiziqishlarini yanada oshirishga qaratilganini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda ushbu sohaga e‘tibor qaratilishi ham bejizga emas Muhtaram Prezidentimiz tomonidan olib borayotgan islohotlar ham aynan shu sohada mutaxassislarni bilimli va yuqori tajribali kadr qilib tayyorlash kerakligini ta‘kidlab o‘tdilar. Kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlarga bag‘ishlangan ochiq muloqot bo‘lib o‘tdi. Ushbu muloqotda 60 mingdan ziyod yoshlar ishtirok etdi. Muloqot ko‘tarinki ruhda bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari har bir hududlardagi rahbarlar yoshlardagi mavjud muammolarini o‘rganish uchun haftaning Payshanba kunini “Yoshlar kuni” o‘tkazilishini belgilab berdi. Bundan asosiy maqsad yoshlarni ta‘lim olishi, sport bilsn shug‘ullanishi, kasb va til o‘rganib ishga kirishi yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishiga ko‘maklashishdir.

Muloqotning yana bir muhim jihati shundaki, joriy yildan “Kelajak tadbirkori” dasturi ishga tushiriladi hamda yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatgaacha 15% kredit ajratish boshlanadi. Xususan, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga garovsiz yigirma million so‘mgacha, tadbirkorlik ko‘nikmasiga ega bo‘lib, o‘z biznesini boshlayotganlarga uch yuz million imtiyozli kreditlar ajratish ko‘zda tutilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar talaygina. Ushbu shart-sharoitlar yoshlarni har taraflama rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Ta’lim tadbirkorlik, sport barcha ijtimoiy sohalarida olib borilayotgan islohotlar albatta o‘z natijasini beradi. Ushbu yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish esa yosh avlodning o‘ziga bog‘liq. Bejizga Prezidentimiz xotin-qizlarni o‘qitsak butun bir millatni bilimli qilgan bo‘lamiz deya ta’kidlamoqdalar. Bizdan qoladigan kelajak avlod kitobga va bilimga qiziqishi bo‘lsa albatta yosh avlod kelgusida hech qanday huquqbuzarlik sodir etmaydi deya ishonch bilan aytish mumkin. Shunday ekan har bir sohada imkoniyatlar eshigi ochilishi bu mamlakatning barqaror rivojlanishi hamda yoshlarning porloq kelajagi uchun muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizdagi yaratilayotgan keng miqyosdagi imkoniyatlar yana bir muhim jihati yoshlarni huquqbuzarlik va turli hil illatlar domiga tushib qolmasligi uchun hamda bandligi ta’minlangan shaxslar boshqa bir jinoyat yo‘liga kirib qolishini ham oldini olish mumkin. Hozirgi kunda hunarmandchilik, tadbirkorlik faoliyatni boshlamoqchi bo‘lgan yoshlarga shunchaki onlayn ariza topshirish orqali hududlardagi bank filiallaridan imtiyozli kreditlar berilishi, va yosh oilalarga subsidiya asosida uy-joy bilan ta’minlanishi nazarda tutilganini ko‘rishimiz mumkin. Jamiyatda yoshlarni huquqiy ongi va huquqiy madaniyati qanchalik baland bo‘lsa rivojlanish shunchalik shiddatli bo‘lishi mumkin. Yangi O‘zbekistonda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar – bu kelajakning mustahkam poydevori. Bugungi tashabbuskor, bilimli va vatanparvar yoshlar ertangi kunning taraqqiyotini belgilab beradi. Demak, Yangi O‘zbekistonning ertangi kuni albatta bugungi yoshlar qo‘lida, va bu ularning orzu-intilishlari va mehnatlari orqali barpo etiladi. Albatta buning uchun hozirdan yosh avlodni chuqur bilim olishi va yuqori salohiyatga ega bo‘lishi uchun ushbu yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishi, kelgusida kompyuter texnologiyalaridan, ijtimoiy tarmoqlardan va sun’iy intellektlardan ham to‘g‘ri yo‘lda foydalanishlari zarur deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi(2023-yil 30-aprel)
2. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonun(2016-yil 12-avgust)
3. Yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-60-17-son(2020-yil 30-iyun)
4. O‘zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 400-sonli qarori (2021-yil 29-iyun)